



**Hurmatli
abiturientlar**

diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurbon hayitini nishonlash to'g'risida" 2019 yil 2 avgustdagi PQ-4413-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qurbon hayitining joylarda yuqori saviyada, xalqimizning milliy va diniy an'alariga mos ravishda o'tishi munosabati bilan joriy yilning 11 avgust kuni o'tkaziladigan test sinovlari quyidagi muddatlarga ko'chirilganligi ma'lum qilinadi (abituriyent ruxsatnomasida ko'rsatilgan bino va soat o'zgarmagan holda):

Qashqadaryo viloyatida – 12 avgust kuni;
Farg'ona, Jizzax va Navoiy viloyatlarida
-13 avgust kuni;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon,
Xorazm va Samarqand viloyatlarida – 14
avgust kuni;

Buxoro viloyatida – 15 avgust kuni
o'tkaziladi.

*0'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi Huzuridagi Davlat test markazi*